



Dilorom KARIMOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, PhD
E-mail: karimovadilorom15@gmail.com

ADCHTI dotsenti, PhD D.Qozoqboyeva taqrizi ostida

“O’LIM” VA “HAYOT” KONSEPTINING ASSOTSIATIV TALQINI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada “o’lim” va “hayot” konseptlarining assosiativ talqini haqida olimlarning nazariy va amaliy natijalari yoritilgan. “O’lim” va “hayot” konseptlarining assosiativ talqining metodologiyasi ishlab chiqildi, o’zbek va ingliz tillari misollari yordamida dalillandi. So’zlovchining fikrlari va e’tiqodlari bilan chuqur bog’liqligini til leksemalari orqali ochib berilgan.

Kalit so’zlar: Assosiativ tilshunoslik, assosiativ tafakkur, verbal, nonverbal, konsept, leksemalar.

АССОЦИАТИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ «СМЕРТЬ» И «ЖИЗНЬ»

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются теоретические и практические результаты ученых по ассоциативной интерпретации понятий «смерть» и «жизнь». Разработана и обоснована методика ассоциативной интерпретации понятий «смерть» и «жизнь» на примерах из узбекского и английского языков. Глубокая связь с мыслями и убеждениями говорящего раскрывается через языковые лексемы.

Ключевые слова: Ассоциативная лингвистика, ассоциативное мышление, вербальное, невербальное, концепт, лексемы.

ASSOCIATIVE INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF “DEATH” AND “LIFE”

Annotation

This scientific article covers the theoretical and practical results of scientists on the associative interpretation of the concepts of “death” and “life”. The methodology of the associative interpretation of the concepts of “death” and “life” is developed, substantiated using examples from the Uzbek and English languages. The deep connection with the speaker’s thoughts and beliefs is revealed through language lexemes.

Key words: Associative linguistics, associative thinking, verbal, nonverbal, concept, lexemes.

Kirish. Til serqirra mohiyatli murakkab tuzilishga ega lisoniy tuzilma. Inson tildan foydalanishda unga o’z ta’sirini o’tkazishi, uni “o’z izmiga solishga” o’rganishi tabiiy hodisadir. O’z o’rnida til ham insonning ijtimoiy hayotini o’zgartirishiga yordam beruvchi ijtimoiy kuchdir. Til va undan foydalanuvchi shaxs o’rtasidagi bunday munosabatlar tilda o’z ifodalanuvchi shaxs o’rtasidagi bunday munosabatlar tilda o’z ifodasini topmay qolmaydi. Tilshunoslik fani serqirra mohiyatli tilning lingvistik hususiyatlarini o’rganish bilan bir qatorda, til va uning egasi o’rtasidagi mana shu munosabatlarning tilde aks etishi masalasini ham tahlil qilindi.

Antroposentrik tilshunoslikning tilni unday foydalanuvchi shaxs omili bilan bog’liq holda o’rganuvchi mustaqil yo’nalishlaridan biri assosiativ tilshunoslikdir. Assosiativ tilshunoslikda til nafaqat o’zaro munosabatdagi birliklar yig’indisidan tashkil topgan tizim sifatida, balki bir-biri bilan assosiativ bog’langan verbal tarmoq sifatida ham tasavvur etiladi. Assosiativ tilshunoslikning obyekti assosiativ tafakkur birliklari bo’lmish – assosiatsiyalardir, uning ilmiy-nazariy asosini assosiativ munosabat nazariyasi tashkil etadi. Insonning psixologik bilimi bilan bog’liq holda til birliklari munosabatida kuzatiluvchi assosiativ munosabat mazkur tilshunoslik yo’nalishlarining markaziy tushunchalardan hisoblanadi. Bugungi kunda assosiativ tilshunoslik alohida fan yo’nalishi sifatida mustaqil rivojlanib bormoqda. Garchi assosiativ tilshunoslik mustaqil fan yo’nalishi sifatida tilshunoslikning barcha yo’nalishlariga to’la kirib bormagan bo’lsada, o’rganish ob’ekti, tadqiq metodiga ega ekanligi maqsad, vazifalarining aniq qo’yilganligi assosiativ leksikografiya, leksikologiya hamda grammatika kabi bo’limlarni qamrab olishi bu yo’nalishda hatto turli tillarga oid keng hajmli assosiativ lug’atlarning yaratilganligi uning mustaqil fan tarmog’i sifatida rivojlanib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrga kelib A.Nurmonov qayd etganlaridek, tilshunoslik ilmiy paradigamsiga “til shaxsi” kategoriyasining ilgari tilshunoslik nazariyadan chetda

qolgan, lekin tilshunoslikka yaqin bo’lgan boshqa fanlar orasida shaxs, ong, tafakkur, faoliyat, xulq, vaziyat singari tushunchalarning o’zlashtirilishiga olib keldi[1]. Manbaalarda qayd etilishicha “assosiatsiya” (lotincha association – qo’shish, birlashtirish) termini ilmiy muomilaga 1690 yilda ingliz filosofi, pedagog, empirizmi va liberalism vakili J.Lokk kiritgan. U qadimgi dunyo falsafasida buyuk mutafakkirlar Platon va Aristotellar tomonidan ilgari surilgan g’oyalar assosiatsiyasi haqidagi qarashlarni targ’ib qilgan. Platon va Aristotel yodga tushirish jarayonini assosiatsiyaning mexanizmi sifatida tushunishgan. Aristotel g’oyalarning o’xshashlik, vaqt jihatidan ketma-ketlik va kontrastlik (qarama-qarshilik) asosida o’zaro assosiativ bog’lanishi, Platon esa o’xshashlik va yondoshlikka ko’ra hotiradagi bog’lanishlar haqida ma’lumotlar bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Olaning lisoniy manzarasi tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilda barqarorligini aniqlagan holda lisoniy ifodasida o’z ifodasini topadi. Hayot konsepti o’zbek tilida “hayot, tirikchilik, tiriklik, turmush, borlik, umr”, singari ingliz tilida: “life, livelihood, liveliness, life, existence, life” Ot leksemalari bilan ifodalansa, frazeologizm va paremiyalarda badiiy adabiyotda peshona hamda, qismat, taqdir obrazlarida ham ifodalanadi. “Peshonaga yozganidan ayrilma yor” kabi qo’shiqlar shular jumlasidandir. Hayot o’zi nima? Hayotda qanday yashash kerak? Kabi savollar insoniyatni qiyin kelayotgan qadimdan javobi to’la topilmagan savollardan hisoblanadi. Hayot mavzusiga uni tahlil qilishga va anglashga faylasuflar, shoirlar va olimlar ko’p urinishgan. Hayotga baho berilganda o’sha davrdagi muhit (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) e’tiborga olinadi. “Hush durur Bog’u koinot durur, Barchadin yaxshiroqdir Hayot guli”, ANavoiy. “Murodingni hayoting ichra ahtar, Ki mavhum ichra ilm gavhar”, Anbar Otin. “Hayot-harakat, harakatsizlik-o’limdir”, Levis Morris. “Tiriklik jismning idrok va aqlga bo’ysunishi demakdir”, Inb Sino. Demak Navoiyda hayot eng oliy sifat bo’lib tasvirlangan bo’lsa, Anbar Otin maqsad bilan yashash hayot qonuni ekanini ta’kidlaydi. Aynan harakat, tajriba va idrok G’arb va Sharq

falsafasida hayotni ta'minlovchi kuch sifatida baholangan va bu xalq og'zaki ijodi namunalari ham aks etgan.

Rozin hayot haqidagi madaniyatshunoslikdagi turlicha baholanadigan to'rtta vaziyatni ajratib ko'rsatadi:

Hayot – ijobiy qismat sifatida, ba'zan esa eng yuqori qadrlanadigan qadriyat sifatida qaralsa (hayot hamma narsa, o'lim esa uning aksi hech narsa).

Hayot salbiy uqubat sifatida, hayot – bu mashaqqat va zahmatdir.

Hayot inson uchun tushunib bo'lmay koinot singaridir.

Ikki tomonlama hayot darajasi (ikki dunyo mavjud bo'lgan madaniyatga hos xususiyat: xudolar va odamlar)[3].

Insonning “zarar, foyda, kasallik, zo'riqish, ko'tarilish, zaiflik, kuch, zo'riqish, sustlik, hayotni rad etilishi, hayotni tasdiqlash” kabi oppozitsiyalar orqali hayotning optimizm qahramonlik xususiyatiga, e'tibor qaratadi. Tadqiqotchi “pessimism”ni hayotga tahdid deb biladi. Uning fikricha mavjud bo'lgan hamma narsa – hayotdir[4].

Hayot tushunchalari tahlilida barcha aksiologik fikrlarni uchta blokka birlashtirish mumkin.

Hayot eng oliy qadriyat sifatida (hayotdan qimmatroq narsa yo'q).

Hayot – qurbonlik sifatida. Inson kimdir yoki nimadir uchun o'limga qodir bo'lgan holatlar mavjud. Bunday holatlar inson hayotidanda qadrliroq deb bilgan narsalar uchun deb baholanadi.

Hayot qadriyatlar tizimi sistema sifatida.

Frazeologiyadagi hayotning aksiologik ifodasi ko'plab ishlarda tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar natijasida ushbu hulosalarga kelingan. Rus tili lisoniy manzarasida “inson - hayoti” munosabatlari o'ziga hos xususiyatlari mavjud: hayot - harakatchan, faol, mustaqil. Bu insonga ta'sir o'tkazib uni harakatga keltiradi, o'zgartiradi, unga yordam beradi. Hayot – sudya, hayot – ustoz, hayot – tajovuskor deb baholanadi. Inson asosan passiv hayotga bo'ysunadi. Doimo uni ayblashi va nolihi mumkin. Biroq zamonaviylik insondan ko'proq harakatchanlikni talab qilmoqda, va bu asosan publistik kontekstlarda o'z ifodasini topgan: hayot – sherik hatto hayot – qul sifatida gavdalanadi[5].

Lisoniy shaxs ongida kognitiv, iqtisodiy, estetik va etik bahoning shakllanib tilda ma'lum bir milliy obrazlar bilan aks etishi tilshunoslikda o'ziga hos alohida maydonni yuzaga keltiradi. Inson-hayot obrazlarini tilde va lisoniy ifodada yoritishda, insonning ruhiyati bilan bog'liq qadriyatlar ifodalangan tadqiqotlarni tadqiqqa tortdik: bu qadriyatlar motivatsion xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Hayotni ushbu semantik maydonlarga bo'lib o'rganish mumkin: o'zbek tilida: “Inson hayoti eng oliy qadriyat, Odam oltindan qimmat, Odamning qo'li gul, Inson gavhari qobil, Odam olamning oltin toji. Tiriklikning o'zi – baxt”, ingliz tilida: “Human life is the highest value, Man is more expensive than gold, Man's hand is a flower, Man is a gem, and Man is the golden crown of the world. Being alive is happiness”. Chunki inson har qanday ma'naviy boyliklarning ijodkoridir. Huddi shuning uchun insonning ongi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, undan tashqarida turgan bironta qadriyat bo'lishi mumkin emas. Zero, Navoiy dunyoqarashi va negizida ham inson - buyuk deb baholanadi.

“Barchasini garchi latif aylading,

Barchadin insonni sharif aylading”.

Hayotda inson hamisha yaxshi niyat bilan yashashi lozim. Yaxshi niyat – yarim davlat, Umid o'lmay – risq kamimas, O'z o'rni ega bo'lishlik – tiriklik, O'lik bo'lib go'rda yo'q, Tirik bo'lib to'rda yo'q. O'lik bo'rini it tishlamas.

Maqsud Shayhzoda ham:

“Umrlar bo'ladiki, o'ligidan tirikdir,

Odamlar bo'ladiki, tirigidan o'likdir”.

Degan misralari ham yuqoridagi hayot falsafasi haqida aytilgan qarashlarning yaqqol namunasidir.

Hayot – harakatdan iborat. Tirik bandaga tinim yo'q. oz yesang ko'p yashaysan, mehnat qilsang ko'p oshaysan. Turmush – urinish. Tuxumni ko'rmaganga qarag'a ham, tuvuq.

Hayot uchun kurashmoq zarur. Daryoga ot solmastdan oldin, kechuvini top: jumadan umiding bo'lsa, payshanbadan harakat qil: Zamona kelmay qirindan, g'amingni ye burundan: olisdan otigan qopqon, to'g'ri mo'ljalga yetar:

Hayot – kurash yoki hayot sharoiti, agar kurash tugasa, hayot ham tugaydi. Hayotda ma'no va maqsad bo'lmay, qiyinlashib boraveradi. Hayotda omon qolish kuch qudratning o'sishi, intilishi – insoniyat uchun intuitiv va instinkt bo'lib, uning qiymatiga tahdid, hayotga mazmun beradigan narsa bu qayriyatlaridir. Til egalari olamning lisoniy manzarasida: Taqdir – oliy hakam. Ya'ni hayot – olloh tomonidan berilgan ne'mat. Inson qismat yetaklagan yo'l tomon harakatlanaveradi. Shu bilan birga inson eng oliy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari, harakatlari bilan taqdiri o'zgartiradigan kuch egasi sifatida shakllanadi. Shuningdek, maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun albatta tirik inson harakat qilishi joiz. Zero, “taqdirga tadbir hayron,” qismat maqollari singari lisoniy til birlilari fikrimiz isbotidir.

Tahlil va natijalar. Inson ongida bir-birini eslatuvchi psixik tasavvur, g'oyalar assotsiatiiv tilshunoslik hisoblanadi. Lingvistik (verbal yoki noverbal) assotsiatsiyalar – til egasining voqeilik haqidagi psixologik tasavvuri natijasida yuzaga keladi, ushbu hodisalar tilda bir-biri bilan tilda muayyan aloqada bo'lgan aniq lisoniy birliklar orqali voqealashadi. Ma'lumki, tildagi leksik va semantik birliklar tabiiy ravishda yondosh ma'nolar (yaqin, zid, o'xshash ma'nolar) orqali ochib beriladi. Masalan “hayot” leksemasini zid ma'nosini “o'lim” leksemasi orqali ifodalanadi.

Ingliz tilda “hayot” konsepti noverbal ifodalanishini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

1. Lifes begin at fourty – hayot qirq yoshdan boshlanadi deb yuritiluvchi ushbu ibora ingliz millatining yashash tarsi bilan bog'liq bo'lib, inglizlar o'zlarini aynan shu yoshda hayotga, turmush qurushga mukammal darajada tayyor deb hisoblaydilar. Ularning fikricha qirq yoshga to'lgan odamda maroqli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma tajriba va vositalar mavjud bo'lsa, hayot yaxshilanadi. “Today people in their fourtieth are now able to get married, have children and prosper as the saying goes life begins at fourty”[7].

2. In the next life – iborasi o'limdan keying hayot haqidagi diniy e'tiqodlarni ko'rsatadi va inglizlar o'limdan keyin boshqa hayotga ega bo'lishi mumkin deb hisoblashadi. “Each household may have left offerings for their ancestors goodwill or to sustain them in the next life”[8].

3. A daughter is a daughter all of her life – ushbu leksemda ingliz tilida qiz bolaning o'z ota-onasi, tug'ilib o'sgan oilasiga bo'lgan musosabati tasvirlangan. Ularning fikricha qiz fanzand turmushga chiqqandan so'ng ham keyin uning oilasiga nisbatan ilgari qiz mehri, g'amxo'rliqi, saqlanib qoladi. O'g'illar esa turmush qurishgach odatda ko'proq o'z oilasiga sayanib qoladilar. “You will always be my little girl, a son is son until, he takes a wife, a daughter is a daughter all of her life”.

Vaqt-soati yetib olamdan o'tish xalqimiz tilda «bandalikni bajo keltirish» deyiladi. Bandalikni bo'yunga olgan inson yoshi ulg'ayib borar ekan, omonatini topshirish taraddudini ko'radi. “O'lim” kontseptining ilmiy taraflarini o'rganar ekanmiz, biz ushbu kontseptning gender xususiyatlariga ham alohida chuqurroq to'xtalib o'tishni lozim deb bildik. Chunki o'lim bilan bog'liq marosim va odatlarda ayol hamda erkaklarga xos farqli jihatlar mavjud. Har bir xalq madaniyatida gender xususiyatli odatlar mavjud bo'ladi, masalan, o'zbek madaniyatida idda saqlash ayollarga xos bo'lib, diniy an'analarga ko'ra ayollar eri o'lgan kundan boshlab to'rt oy va o'n kun ostona xatlab ko'chaga chiqmasliklari, erkaklarga boqmasliklari talab qilinadi.

Masalan “o'lim” konseptida noodiativ belgi-xususiyatlar mavjud bo'lib, uning tarkibiy qismini tashkil etuvchi ayrim belgi xususiyatlar nutqiy vaziyatlarda uchraydi. Masalan: dafn marosimi – “dead.....”, eng tinch, sokin payt – “...”, juda charchagan, toliqqan, kuchi yo'qolgan qonun – a dead law, ishlatib bo'lingan, endi foydalanilmaydigan narsa – a dead copy, oqmayotgan (ko'lmak) suv – dead water, uchib qolgan sigaret olovi – a dead fire ta'msiz – a dead wine, Azroil – death angel, belgilab qo'yilgan vaqt chegarasi – deadline, Aqsh qog'oz pullari – dead president(sl.). Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, “o'lim” konsepti turli odatiy va noodiativ belgi-xususiyatlariga ega bo'lib, konsept talablaridan hamda kommunikant (suxbatdoshlar) tanlovidan kelib chiqqan xolda, muloqot ishtirokchilarining lingvistik va xayotiy tajribasiga mos ravishda voqealashadi.

Xulosa. “O’lim” konseptiga to’xtaladigan bo’lsak, sir emaski, o’lim har doim insoniyatning asosiy tashvishlaridan biri hisoblangan. Dunyodagi aksariyat tillar singari, ingliz tilida ham o’lim boshqa tirik bo’lmaslik, mavjud bo’lmasli yoki yaqin odamidan juda bo’lish ma’nolarini anglatganligi sabab, bu holat qayg’uli, baxtsiz holat deb hisoblanadi. “As baleful as death” iborasi ham ingliz tilida ushbu tushunchaning noxush holat ekanligi va unga nisbatan umumiy qo’rquvni tushunishimiz mumkin. “I wouldn’t go out if I were you. That full moon is looking as baleful as death”. Shu sababli ham ingliz tilida bu so’zning o’rniga “o’lim” konseptini ifoda etuvchi ko’plab evfemistik so’z va iboralardan foydalanadi. Misol uchun: “to depart, to slip away, to lose one’s life, to pass away”. “His

grandmother passed away last year”. “To enter eternal rest, to be called back to God, to called home, to join to one’s ancestors” birikmalarida ham ingliz millatiga xos diniy qarashlar mujassamlashgan bo’lib, ularda xalqning o’limdan keying haqiqiy, abadiy hayotning mavjudligi haqidagi g’oya ifodalangan. Xulosa qilib aytganda, biz “kontsept” kognitiv tilshunoslikning asosiy masalasi sifatida ko’rib chiqar ekanmiz, uning so’zlovchining fikrlari va e’tiqodlari bilan chuqur bog’liqligini ko’rishimiz mumkin. Ingliz tilida “hayot” va “o’lim” konseptlarini to’laroq ifoda etishga xizmat qiluvchi frazeologik birliklar mavjud bo’lib, ular ushbu xalqning madaniyati, qarashlari, tarixi va urf-odatlar bilan chambarchas bog’liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Nurmonov A.. Lingvistik ta’limotning yangi bosqichi. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 92.
2. Философский энциклопедический словарь. 2010 // dic.academic.ru // dic. nsf/ enc. Philosophy/1978.
3. Розин.В.М. Философия и методология. Традиция и современность//Вопросы философии. 1996.11. С. - 24
4. Еврейский вопрос, как вопрос о расовом характере и о его вредоносном влиянии на существование народов, на нравы и культуру. / Перевод 5-го издания. — М., 1906. С. – 35-48
5. Иланова О.А. Концепт “жихнь” в русской языковой картине в мире; лингвокультурологический и лексикографический аспекты. Автореферат. (дис.кан.наук) Санк-Петербург 2005. С 28.
6. Komilova G.R. Xayot buyuk qadriyat sifatida. NamDu Ilmiy habarnomasi 2021.2. B. -208
7. <https://idioms.thefreedictionary.com/life>.
8. <https://merriam.webster.com/dictionary.the.next.life>
9. Cohen & Harrison, 1972 University of Twente P.O.Box 217, 7500AE Enschede the Netherlands.